


QASHQADARYO VILOYATIINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2019 yil yanvar-fevral)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1507,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 100,9 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 36,4 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 33,7%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1470,7 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 106,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 105,5 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 102,1 %) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning faqat Qarshi shahri va Yakkabog' tumanidan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Shaxrisabz (110,2%), Qarshi (110,1%), Qamashi (106,8%), G`uzor (104,9%) tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilib 33,7 % ni va 36,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 2,4 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 1470,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 106,4 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 97,6 % ga teng.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



Kichik tadbirkorlik
 Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Koson (100,0%), Kitob (99,9 %), Mirishkor (99,9 %), Qamashi (99,9%) va Yakkabog' (99,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 2,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shaxrisabz tumanida (18,5 %), Qarshi shahrida (6,5 %) va G'uzor (1,1%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	36362,1	33,7	1470706,6	106,1
G`uzor	665,6	127,4	83983,1	104,7
Dehqonobod	147,5	8,6	58564,1	105,1
Qamashi	125,1	6,4	75529,0	108,7
Qarshi	257,3	103,0	113604,5	110,1
Koson	53,7	2,6	62387,2	105,0
Kitob	106,3	10,0 m	148270,3	108,1
Mirishkor	78,8	9,0	106566,8	104,8
Muborak	773,8	75,9	69374,5	105,0
Nishon	170,8	40,0	43621,2	105,0
Kasbi	217,8	14,6	59888,3	104,8
Chiroqchi	406,4	101,8	64457,3	105,3
Shaxrisabz	10452,9	2,0 m	132777,5	99,7
Yakkabog'	142,1	8,8	45915,5	99,6
Qarshi sh	22590,2	25,9	324212,6	109,4
Shaxrisabz sh	173,8	5,5	81554,8	104,2

**Shahar va tuman kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar
aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019 yil yanvar-fevral oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 473,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 98,9 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko`rsatkichlar Qarshi shahri (1287,3 ming.so`m), Shaxrisabz shahri (619,3 ming. so`m) va Mirishkor (600,3 ming.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Qarshi (262,0 ming.so`m), Shaxrisabz (260,4 ming.so`m) va G'uzor (299,9 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	473,8	98,9
G'uzor	299,9	103,2
Dehqonobod	532,2	100,7
Qamashi	433,8	104,7
Qarshi	262,0	107,8
Koson	538,8	101,4
Kitob	415,7	106,2
Mirishkor	600,3	101,8
Muborak	529,1	102,3
Nishon	409,1	101,7
Kasbi	340,6	100,8
Chiroqchi	337,3	102,6
Shaxrisabz	260,4	107,9
Yakkabog'	320,3	95,8
Qarshi sh	1287,3	89,3
Shaxrisabz sh	619,3	99,4

Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 %ni tashkil etib, 34,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,4 % o`sishga erishildi.


QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 332,7 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 100,2 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirdorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oyi yakunlariga ko`ra, 240,3 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 116,7 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 72,2 % ni tashkil qilmoqda.

Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Yirik korxonadlar
Kichik korxonalar

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalarning ulushi 27,8 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln..so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	332712,4	100,2	92419,2	73,2	240293,2	116,7
G`uzor	1711,0	112,7	-	100,0	1711	112,7
Dehqonobod	695,8	111,7	-	100,0	695,8	111,7
Qamashi	3827,5	117,1	-	100,0	3827,5	117,1
Qarshi	14052,7	111,8	-	100,0	14052,7	111,8
Koson	14315,6	111,5	0,6	100,0	14315,0	111,5
Kitob	14375	114,5	0,5	3,5	14375,0	114,7
Mirishkor	4236,7	115,6	-	100,0	4236,7	115,6
Muborak	3033	39,3	792,7	13,9	2240,3	111,0
Nishon	13764,8	124,4	2,2	100,0	13762,6	124,3
Kasbi	3752,3	96,0	-	100,0	3752,3	110,4
Chiroqchi	7378,6	110,3	8,0	100,0	7370,6	110,1
Shaxrisabz	3201,3	114,5	44,9	27,5	3156,4	119,9
Yakkabog'	6653,6	114,0	-	100,0	6653,6	114,0
Qarshi sh	224378,9	96,9	91503,5	76,6	132875,4	118,4
Shaxrisabz sh	17335,6	112,0	66,7	15,4	17268,9	114,8

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`atlari Muborak (39,3%) va Qarshi shahar (96,9 %) , Kasbi (96,0%) tumanlarida qayd etildi.